

MILLIY MADANIY MEROS VA TURIZM INTEGRATSIYASI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASIDA

Kenjayeva Binafsha Shermat qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Turizm faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha 4-kurs
kenjayevabinafsha888@gmail.com +998914471108

Nazarov Nazar

Ilmiy rahbar: i.f.f.d (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20092824>

Annotatsiya: Mazkur tezisda milliy madaniy meros va turizm o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ularning integratsiyasi O‘zbekiston tajribasi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarining turizm rivojlanishidagi o‘rni, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, tarixiy shaharlar, me‘moriy yodgorliklar, milliy an‘analar va urf-odatlarining turistik mahsulot sifatida shakllanish jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Tezisda Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy markazlarning turizm salohiyati alohida tahlil qilinib, ularning xalqaro turizm bozoridagi o‘rni baholanadi. Shu bilan birga, madaniy merosni saqlash va undan samarali foydalanish masalalari, davlat siyosati va innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish yo‘nalishlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Milliy madaniy meros, turizm integratsiyasi, madaniy turizm, nomoddiy meros, tarixiy obidalar, turistik salohiyat, barqaror turizm, O‘zbekiston, Samarqand, Buxoro, Xiva.

Kirish

Bugungi globalashuv jarayonida milliy madaniy merosni asrab-avaylash va uni turizm sohasi bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boy tarixiy va madaniy salohiyatga ega bo‘lgan O‘zbekiston uchun ushbu yo‘nalish iqtisodiy rivojlanish, xalqaro imijni mustahkamlash hamda milliy qadriyatlarni keng targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat hududida joylashgan Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlar nafaqat me‘moriy yodgorliklari, balki o‘ziga xos urf-odatlari, an‘analari va nomoddiy merosi bilan ham jahon turizmi bozorida alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekistonda turizm va madaniy meros sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu borada qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, PF-5611-son Prezident farmoni - **2019-yil 5-yanvardagi “Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon** mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, tarixiy-madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish hamda ularni xalqaro miqyosda targ‘ib qilishning muhim huquqiy asosini yaratdi.

Mazkur tadqiqotda milliy madaniy meros va turizm integratsiyasining nazariy asoslari hamda O‘zbekiston tajribasi misolida uning amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda mavjud muammolar va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari yoritiladi.

Madaniy meros obyektlarini saqlash va boshqarishning zamonaviy yondashuvlari.

Madaniy meros obyektlari – biror xalqning tarixiy, madaniy va ma‘naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi noyob manbalardir. Ular nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ta‘limiy qiymatga ham ega. Shu sababli, madaniy merosni boshqarish bugungi kunda muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Madaniy meros obyektlarini boshqarish jarayoni

ularni saqlash, restavratsiya qilish, targ'ib etish va samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Madaniy merosni boshqarish bir qator asosiy funksiyalarni o'z ichiga oladi:

1. Saqlash va konservatsiya – obyektlarning tabiiy yoki yaratilgan sharoitda yillar davomida saqlanishini ta'minlash.

2. Restavratsiya va tiklash – tarixiy va madaniy qadriyatlarni tiklash, buzilgan yoki yo'qolib borayotgan qismlarni asrab-avaylash

3. Monitoring va baholash – obyektlarning holatini muntazam kuzatish va baholash, xavf-xatarlarni aniqlash.

4. Targ'ib va ta'lim – jamiyatni madaniy merosga qiziqtirish, ta'lim dasturlari, ko'rgazma va ekskursiyalar orqali madaniy qadriyatlarni etkazish.

5. Barqaror turizmni rivojlantirish – tashrifchilar oqimini boshqarish, obyektlarga zarar yetmasligi va turizmni iqtisodiy daromad manbaiga aylantirish. Shu bilan birga, madaniy merosni boshqarishda zamonaviy yondashuvlar raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni, xalqaro standartlarga rioya qilishni va jamiyat ishtirokini ta'minlashni talab qiladi.

Zamonaviy yondashuvlar:

1. Raqamli transformatsiya Bugungi kunda ko'plab muzeylar, tarixiy va madaniy obidalar raqamlashtirilmoqda. Bu orqali: onlayn kataloglar va bazalar yaratish, virtual ko'rgazmalar va ekskursiyalar tashkil qilish, interaktiv multimedia vositalaridan foydalanish, amalga oshiriladi. Raqamli transformatsiya madaniy merosni keng auditoriyaga yetkazishga xizmat qiladi.

2. Barqaror boshqaruv Barqaror boshqaruv tamoyili obyektlarning uzoq muddatli saqlanishini kafolatlaydi. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi: ekologik xavfsizlik (materiallar, energiya, chiqindilarni boshqarish), moliyaviy barqarorlik (homiylilik, grantlar, turizm daromadi), ijtimoiy barqarorlik (jamiyat ishtiroki, madaniy xabardorlik).

3. Jamiyat ishtiroki Madaniy meros obyektlarini boshqarishda jamiyat ishtiroki katta ahamiyatga ega. Jamiyat bilan aloqalar orqali: ijtimoiy majburiyatni oshirish, madaniy qadriyatlarni targ'ib qilish, ko'ngilli dasturlar va ta'limiy loyihalarni amalga oshirish mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, madaniy merosni samarali boshqarish uchun strategik rejalashtirish, raqamli texnologiyalar va barqaror turizmni rivojlantirish zarur. UNESCO, ICOM va boshqa xalqaro tashkilotlar standartlari madaniy merosni saqlash va boshqarish bo'yicha umumiy yo'riqnomalarni belgilaydi. O'zbekiston madaniy merosi boyligi bilan ajralib turadi.

Milliy model quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: davlat tomonidan moliyalashtirish va huquqiy nazorat, tarixiy va madaniy obyektlarni saqlash va restavratsiya qilish, ta'lim va targ'ib ishlari orqali jamiyatni jalb etish. Xalqaro tajribani milliy modelga integratsiya qilish madaniy merosni saqlash, targ'ib qilish va barqaror boshqarishni rivojlantirish imkonini beradi.

Madaniy meros obyektlarini boshqarishda uchraydigan asosiy muammolar: moliyaviy resurslar yetishmasligi, kadrlar malakasining pastligi, vandalizm va tabiiy xavflar, turizm oqimining tartibsizligi, raqamlashtirishning sekin rivojlanishi.

Ushbu muammolarni yechish uchun: xalqaro grantlar va homiylikni jalb qilish, kadrlar malakasini oshirish dasturlari, xavfsizlik va monitoring tizimlarini joriy etish, barqaror turizm va tashrifchi markazli boshqaruvni rivojlantirish, raqamli platformalar va virtual ko'rgazmalar yaratish tavsia etiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. PF-5611-son Prezident farmoni. “Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2019-yil 5-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil.
3. UNESCO. *World Heritage and Sustainable Tourism Programme*. 2013.
4. UNWTO. *Tourism and Culture Synergies*. Madrid, 2018.
5. UNWTO. *International Tourism Highlights*. 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. O‘zbekiston turizmi bo‘yicha statistik ma‘lumotlar. 2022–2024.
7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Turizm va xizmatlar sohasi bo‘yicha hisobotlar. 2021–2024.
8. Kotler Philip. *Marketing Management*. Pearson Education, 2016.
9. Richards Greg. *Cultural Tourism: Global and Local Perspectives*. 2018.
10. Timothy Dallen J.. *Cultural Heritage and Tourism*. Channel View Publications, 2011.